“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Davlat boshqaruvida sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish shaffofligini ta’minlash: yagona davlat reyestrini joriy etish masalalari

Ilhomjon Aliyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti
tayanch doktoranti
e-mail: ilhomaliyevv2@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada davlat boshqaruvida sun’iy intellekt tizimlaridan foydalanish shaffofligini ta’minlash hamda bunday tizimlarni yagona davlat reyestrida hisobga olishning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi algoritmik shaffoflikning huquqiy mazmunini aniqlash, O‘zbekiston qonunchiligidagi mavjud kafolatlarni baholash va taklif etilayotgan reyestrning huquqiy maqomini asoslashdan iborat. Qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil asosida Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Yevropa ittifoqi, Estoniya va AQSh tajribasi o‘rganildi. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni 7-1-moddasida belgilangan inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ahamiyatga ega qarorlarda faqat sun’iy intellekt xulosasiga tayanmaslik talablari alohida tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida reyestrni xavf darajasiga qarab yuritish, jamoatchilik uchun ochiq ma’lumotlarni nazorat organlari uchun batafsil ma’lumotlardan ajratish va tizimdagi o‘zgarishlar tarixini saqlashdan iborat uch qismli model taklif etildi. Muallif reyestrga kiritishni ruxsat beruvchi yoki huquqni vujudga keltiruvchi harakat emas, balki rasmiy hisobga olish va nazorat chorasi sifatida baholaydi; yuqori xavfli tizimlar uchun esa oldindan ro‘yxatdan o‘tish foydalanishni boshlashning majburiy tartibiy sharti bo‘lishi lozimligi asoslantiriladi.

Калит сўзлар. sun’iy intellekt, algoritmik shaffoflik, davlat boshqaruvi, davlat reyestri, ochiqlik, xavfni baholash, inson nazorati, javobgarlik, ma’muriy qaror, raqamli davlat

Аннотация. В статье анализируются правовые основы обеспечения прозрачности использования систем искусственного интеллекта в государственном управлении и их учета в едином государственном реестре. Цель исследования состоит в определении правового содержания алгоритмической прозрачности, оценке действующих гарантий законодательства Узбекистана и обосновании правового статуса предлагаемого реестра. На основе сравнительно-правового и системного анализа изучен опыт Нидерландов, Великобритании, Канады, Европейского союза, Эстонии и США. Отдельно проанализирована статья 7^{1} Закона Республики Узбекистан «Об информатизации», закрепляющая

требования по защите прав человека и недопустимости принятия юридически значимых решений исключительно на основании выводов систем искусственного интеллекта. По итогам исследования предлагается трехчастная модель реестра: открытые сведения для общественности, расширенная информация для органов контроля и история существенных изменений системы. Регистрация рассматривается не как разрешение или юридический факт, порождающий право на использование системы, а как официальная мера учета и контроля; для систем высокого риска предварительная регистрация предлагается в качестве обязательного процедурного условия.

Ключевые слова. искусственный интеллект, алгоритмическая прозрачность, государственное управление, реестр алгоритмов, автоматизированное решение, алгоритмическая подотчетность, оценка рисков, человеческий контроль, административное право, цифровое государство

Annotation. This article examines the legal foundations for ensuring transparency in the use of artificial intelligence systems in public administration and for recording such systems in a unified state register. The study aims to define the legal content of algorithmic transparency, assess the existing safeguards in Uzbekistan’s legislation, and clarify the legal status of the proposed register. Using comparative legal and systemic analysis, the practices of the Netherlands, the United Kingdom, Canada, the European Union, Estonia and the United States are examined. Particular attention is paid to Article 7^1 of the Law of the Republic of Uzbekistan “On Informatization”, which protects human rights and prohibits legally significant decisions from being based solely on the conclusions of artificial intelligence systems. The study proposes a three-part register model consisting of public information, extended information for oversight bodies, and a history of significant system changes. Registration is treated not as a permit or a legal fact creating a right to use the system, but as an official accounting and oversight measure; for high-risk systems, prior registration is proposed as a mandatory procedural condition for deployment.

Keywords. : artificial intelligence, algorithmic transparency, public administration, algorithm register, automated decision-making, algorithmic accountability, risk assessment, human oversight, administrative law, digital government

Kirish

Sun’iy intellekt (keyingi o‘rinlarda – SI) davlat boshqaruvida oddiy yordamchi vosita bo‘lib qolmayapti. U ma’lumotlarni saralash, xavflarni aniqlash, davlat xizmatlari bo‘yicha tavsiya berish, murojaatlarni guruhlash, hujjat tayyorlash va ayrim hollarda qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli davlat organida SI ishlatilishi faqat texnik masala emas. Fuqaro qaysi tizim ishlatilganini, u nima vazifa bajarganini, natija inson tomonidan tekshirilganmi va xato bo‘lsa kim javob berishini bilishi muhim.

OECDning 2026-yilgi “Raqamli hukumat istiqbollari” hisobotida bu masala aniq raqamlar bilan ko‘rsatilgan. Hisobotdagi 36 davlatdan 14 tasida, ya’ni 39 foizida SI tizimini ishga tushirishdan oldin xavfni baholash talab qilinadi. 11 davlatda, ya’ni 31 foizida tizim ishga tushirilgandan keyin ham tekshiruv o‘tkaziladi. Faqatgina 11 davlatda algoritmik shaffoflik bo‘yicha rasmiy talablar, 6 davlatda esa ochiq algoritmlar reyestri mavjud [1]. Bu ko‘rsatkichlar davlat organlarida SI dan foydalanishning ochiqligi muhim deb tan olinayotganini, biroq bu tartib barcha davlatlarda bir xil darajada shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, bu raqamlar SI tizimlarini joriy etishning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatadi. Davlat organlarida bunday tizimlar ko‘paygani sari ularni kim qo‘llayotgani, qanday xavf tug‘dirishi va natija uchun kim javob berishi ham aniq bo‘lishi kerak. Aks holda SI dan foydalanish tezlashadi, lekin uning ustidan huquqiy nazorat ortda qolishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda algoritmik hisobdorlik va shaffoflik turli jihatlardan yoritiladi. M. Busuiocning yondashuvi SI qo‘llanganda javobgarlik bir nechta subyekt o‘rtasida tarqalib, xato uchun kim javob berishini aniqlash qiyinlashishiga e’tibor qaratadi [2]. M.Wieringa esa hisobdorlikni kengroq talqin qilib, axborot berish, qarorni tushuntirish, uni baholash va zarur huquqiy oqibatni yuzaga keltirish imkoniyati bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi [3]. M.Veale va I.Brass muammoni davlat boshqaruvining ichki tashkil etilishi bilan bog‘lab, texnik tanlovlarning ma’muriy amaliyotga va davlat organi qadriyatlariga ta’sirini ko‘rsatadi [4]. J.Cobbe va J.Singh esa asosiy e’tiborni qaror qanday shakllanganini keyinchalik tiklash va tekshirish imkoniyatiga qaratadi [5]. Demak, Busuioc va Wieringa ko‘proq javobgarlikning huquqiy mazmunini ochsa, Veale va Brass hamda Cobbe va Singh uni tashkiliy va protsessual jihatdan ta’minlash vositalarini ko‘rsatadi.

Mazkur ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu yondashuvlar bir-birini to‘ldiradi, biroq ularning hech biri davlat organlarida qo‘llanayotgan SI tizimlarini ommaviy va tizimli hisobga olish masalasini to‘liq hal qilmaydi. Shu sababli reyestr javobgarlik, qarorni keyinchalik tekshirish va jamoatchilikka axborot berish talablarini bir mexanizmda bog‘lovchi vosita sifatida zarur.

Algoritmik shaffoflik bu - davlat organi tomonidan sun’iy intellekt tizimidan foydalanish faktini, uning maqsadi va huquqiy asosini, qaror qabul qilishdagi rolini, xavf darajasini, mas’ul subyektni, inson nazorati va shikoyat qilish imkoniyatini qonunda belgilangan hajm va tartibda oshkor etish hamda hujjatlashtirishni nazarda tutuvchi huquqiy talablar majmuidir. Bunda shaffoflik barcha dastur kodlarini ommaga ochishni anglatmaydi. Aksincha, fuqaro va nazorat organi uchun qarorning shakllanishiga qaysi SI tizimi qanday ta’sir qilganini aniqlashga yetarli ma’lumot mavjud bo‘lishi kerak. Davlat siri, tijorat siri va raqamli xavfsizlikka oid ma’lumotlar esa faqat qonunda belgilangan asoslarda cheklanishi mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda, davlat boshqaruvida SI dan foydalanishdagi ochiqlikning huquqiy mazmunini aniqlash va O‘zbekiston uchun SI tizimlarining yagona davlat reyestrini shakllantirish masalasini ko‘rib chiqish muhim hisoblanadi. Buning uchun Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Yevropa ittifoqi, Estoniya va AQSh tajribasi qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy fikri shuki, reyestr faqat SI vositalari ro‘yxati bo‘lib qolmasligi kerak. U xavfni oldindan baholash, inson nazorati, tekshiruv, javobgarlik va shikoyat

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

qilish tartibi bilan bog‘langandagina amaliy ahamiyat kasb etadi.

Material va metodlar

Tadqiqot manbalari uch guruhga ajratildi. Birinchi guruhga O‘zbekistonning SI sohasidagi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari [6-8], ikkinchi guruhga OECD hisoboti hamda Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Yevropa ittifoqi, Estoniya va AQShning rasmiy materiallari [1, 9-14], uchinchi guruhga esa SI dan foydalanishda javobgarlik va avtomatlashtirilgan qarorlarni tekshirishga oid ilmiy tadqiqotlar kiritildi [2-5].

Maqolada qonun hujjatlarini o‘rganish, xorijiy tajribani qiyoslash, tizimli tahlil va statistik ma’lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot, asosan, davlat organlari va davlat vazifalarini bajaruvchi tashkilotlar qo‘llaydigan SI tizimlariga qaratildi. Algoritmik shaffoflik ham barcha ma’lumotni ochiq e’lon qilish degani emas. Davlat siri, raqamli xavfsizlik, tergov va tezkor-qidiruv faoliyati, tijorat siri yoki intellektual mulkni himoya qilish zarur bo‘lsa, ayrim texnik ma’lumotlar qonun asosida cheklanishi mumkin. Bunda butun tizimni yashirish emas, faqat himoya qilinishi zarur bo‘lgan ma’lumotni cheklash maqsadga muvofiq.

Algoritmlar reyestrining asosiy vazifalaridan biri xato yuz berganda kim javob berishini aniqlash va qarorni keyinchalik tekshirish imkonini yaratishdir. Reyestrda tizimdan foydalanuvchi davlat organi, uni ishlab chiqqan yoki xizmat ko‘rsatadigan tashkilot, mas’ul bo‘linma, foydalanish maqsadi va inson nazorati qayd etiladi. Bu ma’lumotlar javobgarlik noaniq bo‘lib qolishining oldini oladi [2]. Shuningdek, qaror qanday bosqichlardan o‘tib shakllanganini ko‘rsatuvchi qaydlar keyingi tekshiruv uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi [5].

Reyestrning yana bir muhim vazifasi shaxs huquqlarini himoya qilishdir. Agar SI faqat matnni tahrirlash yoki jadval tuzish uchun ishlatilsa, ochiqlik talabi yengilroq bo‘lishi mumkin. Ammo tizim subsidiya, ruxsatnoma, ijtimoiy xizmat, soliq tekshiruvi yoki boshqa yuridik ahamiyatga ega natijaga sezilarli ta’sir qilsa, fuqaro bunday tizim mavjudligini va uning vazifasini bilishi kerak. Agar SI shaxs yoki holatning xavf darajasini baholasa, natijani inson tomonidan qayta ko‘rib chiqish imkoniyati ham bo‘lishi zarur. Demak, reyestrda beriladigan ma’lumot hajmi tizimning xavf darajasiga qarab belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi “Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 1115-qonuni bilan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunga kiritilgan 7-1-modda reyestr g‘oyasi uchun muhim huquqiy asos hisoblanadi [6]. Moddaning ikkinchi qismidagi “faqat SI xulosasiga tayanmaslik” talabi mansabdor shaxsning oddiy tasdiqlashi bilan cheklanmasligi kerak. Mazmunli inson nazorati uchun u qaysi SI tizimi ishlatilganini, tizimning vazifasi va cheklovlarini, foydalanilgan ma’lumotlarning umumiy toifalarini, xavf darajasini hamda SI tavsiyasini rad etish imkonini bilishi zarur. Aks holda inson ishtiroki faqat rasmiy tusda qolib ketadi. Shu nuqtai nazardan, reyestr 7-1-moddadagi kafolatni amalda tekshirishga yordam beradi, ya’ni, u qaysi tizim qarorga ta’sir qilganini, kim undan foydalanganini va nazorat uchun kim mas’ul ekanini qayd etadi. Biroq 7-1-moddaning o‘zi reyestr yuritish majburiyatini bevosita belgilamaydi. Shuning uchun reyestrni joriy etish amaldagi normaning mazmunini kengaytirib talqin qilish emas, balki ushbu normani amalga oshirish uchun qo‘shimcha protsessual mexanizm

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

yaratish sifatida baholanishi kerak.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, 7-1-moddadagi inson ishtiroki talabi faqat mansabdor shaxsning SI tayyorlagan natijani tasdiqlashi bilan cheklanmasligi kerak. U qarorga qaysi tizim ta’sir qilganini va uning tavsiyasini qachon rad etish mumkinligini bilishi lozim. Shu sababli reyestr ushbu normani amalda ishlatishga yordam beradigan qo‘shimcha huquqiy vosita bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 189-farmonining 1-bandi “a” kichik bandida 2026-yil yakuniga qadar kamida 100 ta SI loyihasini amalga oshirish, 2-bandi “b” kichik bandida esa “ai.gov.uz” milliy portalini ishga tushirish nazarda tutilgan [8]. Kelgusida mazkur portal reyestrning jamoatchilikka ochiq qismi sifatida foydalanilishi mumkin. Biroq reyestrning o‘zi qonunda belgilangan majburiy ma’lumotlar, mas’ul organlar, yangilash tartibi, ma’lumotni cheklash asoslari va javobgarlik qoidalariga ega bo‘lishi kerak. Aks holda u oddiy ma’lumotlar ro‘yxati bo‘lib qoladi.

Biz ai.gov.uz portalini taklif etilayotgan reyestrning o‘zi bilan tenglashtirish to‘g‘ri emas, deb hisoblaymiz. Portal asosan ma’lumot berishga xizmat qiladi, reyestr esa davlat organining muayyan SI tizimidan foydalanishini rasmiy hisobga olishi va buning uchun javobgarlikni aniq ko‘rsatishi kerak. Shu sababli reyestrga ma’lumot kiritish ayrim hollarda majburiy talab bo‘lishi lozim.

Xorijiy tajribada Niderlandiya algoritmlar reyestri ochiq va markazlashgan modellardan biri hisoblanadi. Rasmiy ma’lumotlarda reyestrda 1 500 dan ortiq algoritm tavsifi mavjudligi va tizimlar ularning ta’sir darajasiga qarab guruhlanishi ko‘rsatilgan [9]. Mazkur tajribaning muhim jihati reyestrda tizimning mavjudligi bilan birga uning vazifasi va ta’sir darajasi ham aks ettirilishidir.

Buyuk Britaniyada davlat organlari foydalanadigan algoritmik vositalar haqida ma’lumotni yagona tartibda e’lon qilish uchun maxsus shaffoflik standarti qo‘llanadi. Unda jamoatchilik uchun qisqa tavsif, batafsil qismda esa tizim egasi, foydalanish sharoiti, xavflar va ularni kamaytirish choralari ko‘rsatiladi [10]. Zarur hollarda xavfsizlik yoki intellektual mulkka oid ma’lumotlarning faqat tegishli qismi cheklanadi.

Kanada tajribasida avtomatlashtirilgan qaror tizimini ishga tushirishdan oldin uning mumkin bo‘lgan ta’siri va xavfi majburiy baholanadi, natija esa ta’sir darajasiga qarab guruhlanib ochiq e’lon qilinadi [11]. Bu tajriba reyestrdagi ma’lumotni xavfni baholash natijasi bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

Yevropa ittifoqining 2024/1689-son Sun’iy intellekt to‘g‘risidagi reglamenti yuqori xavfli SI tizimlari uchun aniq talablarni belgilaydi. Ayrim davlat organlari bunday tizimdan foydalanishdan oldin uning asosiy huquqlarga ta’sirini baholashi va tizimni tegishli ma’lumotlar bazasida ro‘yxatdan o‘tkazishi lozim [12]. Ro‘yxatdan o‘tishi shart bo‘lgan tizim bazaga kiritilmagan bo‘lsa, undan foydalanilmasligi kerak.

Estoniyada davlat sektoridagi SI va algoritmik tizimlar haqida ma’lumotni yagona tartibda yig‘ish va ochiqlash yo‘lga qo‘yilmoqda. Huquq va erkinliklarga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan tizimlar bo‘yicha standart shaffoflik ma’lumotlari shakllantiriladi [13]. Bu tajriba reyestrni mavjud raqamli davlat tizimlariga bosqichma-bosqich qo‘shish mumkinligini ko‘rsatadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

AQShda yagona markaziy reyestrdan ko‘ra federal idoralarning o‘z SI tizimlaridan foydalanish holatlarini muntazam hisobga olishi va jamoatchilik uchun ochiq qismini e’lon qilishi talab etiladi [14]. Bu model idoraviy javobgarlikni kuchaytiradi, biroq barcha tizimlar haqidagi ma’lumotni bir joydan topish imkonini bermaydi.

Shuningdek, yuqoridagi tajribalarni solishtirib, O‘zbekiston uchun biror davlat modelini to‘liq ko‘chirib olish maqsadga muvofiq emas. Masalan, Niderlandiyadagi yagona reyestr, Kanadadagi xavfni oldindan baholash va Yevropa Ittifoqidagi yuqori xavfli tizimlarni majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish yondashuvlarini birlashtirish samaraliroq bo‘ladi. Bu usul reyestrni oddiy ma’lumotlar ro‘yxatidan nazorat va javobgarlik vositasiga aylantiradi.

Shu bilan birga, taklif etilayotgan reyestrning huquqiy maqomini aniq belgilash zarur. Xususan, u davlat axborot resursi hamda SI tizimlarini rasmiy hisobga olish va nazorat qilish vositasi bo‘lishi kerak. Tizimni reyestrga kiritish o‘z-o‘zidan undan foydalanish huquqini vujudga keltirmaydi va ruxsatnoma o‘rnini bosmaydi. Reyestrdagi yozuv ham tizim qonuniy, xavfsiz yoki xatosiz degan huquqiy prezumpsiyani yaratmasligi kerak. Biroq yuqori xavfli SI tizimlari uchun oldindan ro‘yxatdan o‘tish foydalanishni boshlashning majburiy tartibiy sharti bo‘lishi mumkin: tizim reyestrga kiritilmagan bo‘lsa, uni shaxs huquqlariga sezilarli ta’sir qiluvchi vazifada qo‘llashga yo‘l qo‘yilmaydi. Demak, ro‘yxatdan o‘tkazishning huquqiy oqibati foydalanishga ruxsat berish emas, balki davlat organining oshkoralik, hisobdorlik va nazoratga oid majburiyatlarini bajarganini rasmiy qayd etishdan iborat.

Shu sababli “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunda “Davlat boshqaruvida foydalanilayotgan sun’iy intellekt tizimlarining yagona davlat reyestri” davlat axborot resursi va hisobga olish-nazorat mexanizmi sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq. Qonunda reyestrga qaysi tizimlar majburiy kiritilishi, qanday ma’lumotlar ochiq bo‘lishi, ma’lumotlarning rasmiy maqomi, yangilash muddati, reyestrni yurituvchi organ hamda ro‘yxatdan o‘tmaslikning huquqiy oqibatlari aniq ko‘rsatilishi kerak. Reyestrdagi ma’lumotlar rasmiy ochiq axborot sifatida foydalanilishi mumkin, biroq reyestrga kiritilganlik tizimning qonuniyligi yoki undan foydalanib qabul qilingan qarorning to‘g‘riligi haqidagi prezumpsiyani yuzaga keltirmasligi lozim. Batafsil tashkiliy va texnik tartib Hukumat qarori yoki vakolatli organning normativ-huquqiy hujjati bilan belgilanishi mumkin.

Reyestrga barcha raqamli dasturlarni bir xil tartibda kiritish shart emas. Tizimlarni xavf darajasiga qarab uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga shaxsning huquqi, erkinligi yoki qonuniy manfaatiga sezilarli ta’sir qiladigan yuqori xavfli SI tizimlari kiradi. Ular foydalanishga topshirilishidan oldin to‘liq ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak. Ikkinchi guruhga fuqarolar bilan bevosita muloqot qiladigan suhbatdosh dasturlar, matn yaratadigan SI yordamchilari yoki davlat xizmatiga ta’sir qiluvchi o‘rta xavfli tizimlar kiradi. Ular ochiq reyestrda soddaroq shaklda ko‘rsatiladi. Uchinchi guruhga qarorga ta’sir qilmaydigan ichki yordamchi vositalar kiradi. Ularni soddalashtirilgan tartibda hisobga olish mumkin.

Bundan tashqari, barcha SI tizimlariga bir xil talab qo‘yish to‘g‘ri emas. Masalan, matnni tahrirlashga yordam beradigan dastur bilan fuqaroning nafaqa olishi yoki tekshiruvga tortilishiga ta’sir qiladigan tizim bir xil xavf tug‘dirmaydi. Shu sababli tizimning shaxs huquqlariga ta’siri qancha yuqori

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

bo‘lsa, unga qo‘yiladigan talab va nazorat ham shuncha kuchli bo‘lishi kerak.

Reyestr tuzilishini uch qismdan iborat qilish maqolaning asosiy takliflaridan biridir. Birinchi qism – jamoatchilik uchun ochiq “SI tizimi pasporti”. Unda tizim nomi, unga berilgan yagona raqam yoki kod, undan foydalanuvchi davlat organi, mas’ul bo‘linma, tizimning maqsadi va huquqiy asosi, foydalanish bosqichi, ishlab chiquvchi yoki xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot, qarordagi roli, ta’sir ko‘rishi mumkin bo‘lgan shaxslar, foydalaniladigan ma’lumotlar, xavf darajasi, inson nazorati, xavfni baholash xulosasi, tekshiruv natijasi, muntazam kuzatuv va shikoyat qilish tartibi ko‘rsatilishi kerak.

Ikkinchi qism – vakolatli nazorat organlari uchun batafsil ma’lumotlar to‘plami. Unda tizimning qaysi ko‘rinishi ishlatilayotgani, ma’lumotlar qayerdan olingani, aniqlik va xatolik ko‘rsatkichlari, kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligini tekshirish natijalari, raqamli xavfsizlik choralari, xarid va foydalanish shartlari, batafsil xavf bahosi, inson tomonidan SI natijasini bekor qilish tartibi, jiddiy xatolar va tekshiruv qaydlari bo‘lishi mumkin. Bu usul jamoatchilikka zarur ma’lumotni berish bilan birga davlat siri va tijorat sirini himoya qilish imkonini ham saqlab qoladi.

Uchinchi qism – tizimdagi o‘zgarishlar tarixi. Tizimning yangilangan ko‘rinishi, foydalanadigan ma’lumotlari, vazifasi yoki xavf darajasi sezilarli o‘zgarsa, reyestrdagi ma’lumot ham yangilanishi kerak. Oldingi ma’lumotlar o‘chirilmay, saqlab qolinadi. Shunda muayyan sanada chiqarilgan ma’muriy qarorga tizimning aynan qaysi holati ta’sir qilganini keyinchalik aniqlash mumkin bo‘ladi.

Shulardan kelib chiqqan holda, reyestrni uch qismga ajratishni ochiqlik bilan maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish o‘rtasidagi muvozanatni saqlashning qulay usuli sifatida ham aytishimiz mumkin. Jamoatchilik bilishi kerak bo‘lgan ma’lumot, nazorat organlari uchun zarur ma’lumot va tizimdagi o‘zgarishlar alohida yuritilsa, bu muvozanatni saqlash mumkin.

Ro‘yxatdan o‘tkazish talabi ham tizimning xavf darajasiga bog‘liq bo‘lishi kerak. Yuqori xavfli yoki shaxs huquqlariga sezilarli ta’sir qiluvchi SI tizimini reyestrga kiritish undan foydalanishni boshlashdan oldingi majburiy shart bo‘lishi maqsadga muvofiq. Yevropa Ittifoqi tajribasiga o‘xshab, ro‘yxatdan o‘tishi shart bo‘lgan tizim reyestrga kiritilmagan bo‘lsa, undan fuqarolarga ta’sir qiladigan vazifalarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmasligi kerak [12]. Bu reyestrni oddiy hisobot emas, davlat organi bajarishi shart bo‘lgan amaliy tartibga aylantiradi.

Reyestrdagi ma’lumotni ma’muriy qaror bilan bog‘lash ham muhim. Agar SI tizimi ma’muriy hujjat yoki davlat xizmati natijasini tayyorlashga sezilarli ta’sir qilgan bo‘lsa, qarorda “qarorni tayyorlashda SI tizimidan foydalanildi” degan qayd berilishi mumkin. Shuningdek, tizimga berilgan yagona raqam yoki kod ko‘rsatiladi. Fuqaro shu kod orqali tizim pasportini topib, uning vazifasi, inson nazorati va shikoyat qilish tartibi bilan tanishadi. Bu 1115-qonundagi inson ishtiroki talabini amalda ko‘rinadigan kafolatga aylantiradi [6].

Reyestrni yuritish bo‘yicha vazifalar aniq taqsimlanishi kerak. Tizimdan foydalanuvchi davlat organi ma’lumotning to‘liqligi va yangilanishi uchun, SI sohasidagi vakolatli organ esa yagona tasniflash mezonlari, xavf toifalari va markaziy axborot tizimi uchun javob beradi. Yuqori xavfli tizimlar bo‘yicha tekshiruv natijalari va foydalanish holati ham reyestrda muntazam yangilanib

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

borishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, algoritmik shaffoflik SI tizimining barcha dastur kodlarini ochish degani emas. Asosiy masala davlat organi qaysi SI tizimidan nima maqsadda foydalanayotgani, tizim qarorga qanchalik ta’sir qilishi, uning xavfi qanday baholangani, inson nazorati mavjudmi va xato uchun kim javob berishini tushunarli ko‘rsatishdir. Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunida “Davlat boshqaruvida foydalanilayotgan sun’iy intellekt tizimlarining yagona davlat reyestri” davlat axborot resursi va rasmiy hisobga olish-nazorat mexanizmi sifatida nazarda tutilishi maqsadga muvofiq. Qonunda reyestrning maqsadi, majburiy ro‘yxatdan o‘tadigan tizimlar, ochiq ma’lumotlar tarkibi, reyestrni yurituvchi organ, ma’lumotni yangilash majburiyati hamda ro‘yxatdan o‘tmaslikning huquqiy oqibatlari belgilanishi kerak.

Ikkinchidan, reyestr xavf darajasiga qarab yuritilishi zarur. Shaxsning huquqi, erkinligi yoki qonuniy manfaatiga sezilarli ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan yuqori xavfli SI tizimlari foydalanishga topshirilishidan oldin majburiy ro‘yxatdan o‘tkazilishi kerak. Fuqarolar bilan bevosita ishlaydigan yoki davlat xizmatiga ta’sir qiladigan o‘rta xavfli tizimlar ham ochiq reyestrda qayd etiladi. Faqat ichki yordamchi vazifani bajaradigan past xavfli vositalarni esa soddalashtirilgan tartibda hisobga olish mumkin.

Uchinchidan, reyestr uch qismdan iborat bo‘lishi taklif etiladi:

1) jamoatchilik uchun ochiq “SI tizimi pasporti”;

2) vakolatli nazorat organlari uchun texnik, xavfsizlik, tekshiruv va xavf haqidagi batafsil ma’lumotlar;

3) tizimning yangilanishlari, vazifasi, foydalanadigan ma’lumotlari va xavf darajasidagi o‘zgarishlar tarixi.

Bunday tuzilma ochiqlikni ta’minlash bilan birga davlat siri, raqamli xavfsizlik va tijorat sirini ham himoya qilish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, yuqori xavfli SI tizimini reyestrga kiritish undan fuqarolarga sezilarli ta’sir qiladigan vazifalarda foydalanishni boshlashdan oldingi majburiy tartibiy shart bo‘lishi kerak. Biroq ro‘yxatdan o‘tkazish huquqni vujudga keltiruvchi ruxsat berish harakati hisoblanmaydi va tizimning qonuniyligi, xavfsizligi yoki undan foydalanib qabul qilingan qarorning to‘g‘riligi haqida huquqiy prezumpsiya yaratmaydi. Xavfni baholash, inson huquqlariga ta’sir, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va aniq ma’muriy ish bo‘yicha qonuniylik alohida tekshiriladi.

Beshinchidan, reyestrning ochiq qismini ai.gov.uz milliy sayti bilan bog‘lash maqsadga muvofiq. Biroq reyestrning ma’lumotlar bazasi va uni yuritish majburiyatlari normativ-huquqiy hujjatda alohida belgilanishi kerak. Davlat organlari ma’lumotlarni muntazam yangilashi, tizimdagi muhim o‘zgarishlarni qayd etishi, tekshiruv natijalari va jiddiy hodisalar bo‘yicha uning holatini yangilab borishi lozim.

Yuqoridagi takliflarni umumlashtirgan holda, O‘zbekistonda davlat organlari tomonidan foydalanilayotgan sun’iy intellekt tizimlarini yagona davlat reyestrida hisobga olishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadga muvofiq. Bunda reyestrni xavf darajasiga qarab yuritish, yuqori xavfli tizimlarni foydalanishga topshirishdan oldin majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish, jamoatchilik uchun ochiq va nazorat organlari uchun batafsil ma’lumotlarni alohida shaklda

yuritish zarur. Shuningdek, sun’iy intellekt tizimi ma’muriy qarorga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan hollarda bu haqda fuqaroga ma’lumot berish, reyestrdagi ma’lumotlarni muntazam yangilab borish hamda uning ochiq qismini ai.gov.uz milliy portali bilan bog‘lash taklif etiladi. Mazkur mexanizmlar davlat boshqaruvida sun’iy intellektdan foydalanishning ochiqligi va nazorat qilinishini kuchaytirish, mas’ul davlat organini aniq belgilash hamda fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini yanada ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. OECD. Adopting and governing AI in government // Digital Government Outlook 2026. Paris: OECD Publishing, 2026. URL: https://www.oecd.org/en/publications/2026/06/digital-government-outlook_4585678e/full-report/adopting-and-governing-ai-in-government_7ef312a9.html

2. Busuioc M. Accountable Artificial Intelligence: Holding Algorithms to Account // Public Administration Review. 2021. Vol. 81, No. 5. P. 825–836. URL: https://doi.org/10.1111/puar.13293

3. Wieringa M. What to account for when accounting for algorithms: A systematic literature review on algorithmic accountability // Proceedings of the 2020 Conference on Fairness, Accountability, and Transparency. 2020. P. 1–18. URL: https://doi.org/10.1145/3351095.3372833

4. Veale M., Brass I. Administration by Algorithm? Public Management Meets Public Sector Machine Learning // Algorithmic Regulation / ed. K. Yeung, M. Lodge. Oxford University Press, 2019. P. 121–149. URL: https://doi.org/10.1093/oso/9780198838494.003.0006

5. Cobbe J., Singh J. Reviewable Automated Decision-Making // Computer Law & Security Review. 2020. Vol. 39. 105475. URL: https://doi.org/10.1016/j.clsr.2020.105475

6. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 21-yanvardagi O‘RQ-1115-son “Sun’iy intellektni qo‘llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni. URL: https://lex.uz/docs/8008401

7. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirining 2026-yil 24-fevraldagi 284-mh-buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Sun’iy intellekt etikasi qoidalari” (ro‘yxat raqami 3787, 16.03.2026). URL: https://lex.uz/pdffile/8083233.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 189-farmoni. URL: https://lex.uz/docs/7789403

9. Government of the Netherlands. The Algorithm Register of the Dutch government: Dashboard. URL: https://algoritmes.overheid.nl/en/dashboard

10. UK Government. Algorithmic Transparency Recording Standard: Guidance for public sector bodies. URL: https://www.gov.uk/government/publications/guidance-for-organisations-using-the-algorithmic-transparency-recording-standard/algorithmic-transparency-recording-standard-guidance-for-public-sector-bodies

11. Government of Canada. Algorithmic Impact Assessment. Updated 28 May 2026. URL: https://www.canada.ca/en/government/system/digital-government/digital-government-innovations/responsible-use-ai/algorithmic-impact-assessment.html

12. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). URL: https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?qid=1747442914146&uri=CELEX%3A02024R1689-20260727

13. Republic of Estonia. Kratid: Mapping of AI and algorithms in the public sector / Algorithm transparency overview. URL: https://www.kratid.ee/en/algoritm-ulevaade

14. U.S. Office of Management and Budget. Memorandum M-25-21: Accelerating Federal Use of AI through Innovation, Governance, and Public Trust. 3 April 2025. URL: https://www.whitehouse.gov/wp-content/uploads/2025/02/M-25-21-Accelerating-Federal-Use-of-AI-through-Innovation-Governance-and-Public-Trust.pdf